

OILA PSIXOLOGIYASIDA GENDER TENGLIK G‘OYASINING AHAMIYATI

Abduraimov Dilshodjon Abduraim o‘g‘li

University of Busines and Science (UBS university)

Tillar kafedrası o‘qituvchisi

dilshodjonabduraimov8@gmail.com

+998937259103

Annotatsiya:

Ushbu maqolada asosan bugungi kunimizda (Globallashayotgan XXI asrda) jamiyatining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila va uning muqaddasligi, uning dahilsizligini yanada ta’min etish, oilada sog‘lom muhitni tashkil etish, shuningdek, oilada erkak va ayolning huquqini teng ko‘rgan holatda (Gender tengligi) uning mustahkamligini shakllantirishdan iborat nazariy qarashlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilganligidir.

Kalit so‘zlar: Oila va jamiyat. Oila psixologiyasi. Gender tengligi. Oilaning muqaddasligi. Oilada erkak va ayol huquqlari tengligi.

Abstract:

This article is mainly aimed at revealing the essence of theoretical views on the family, which is considered the main unit of society in our time (in the globalizing 21st century), and its sanctity, further ensuring its integrity, creating a healthy environment in the family, as well as forming its strength in a situation where men and women are considered equal in the family (Gender equality).

Key words: Family and society. Family psychology. Gender equality. The sanctity of the family. Equality of men and women's rights in the family.

Аннотация:

Данная статья в основном направлена на раскрытие сущности теоретических взглядов на семью, которая в наше время (в глобализирующемся XXI веке) считается основной ячейкой общества, и на её неприкосновенность, дальнейшее обеспечение её целостности, создание здоровой семейной среды, а также укрепление её в условиях, когда мужчины и женщины считаются равными в семье (гендерное равенство).

Ключевые слова: Семья и общество. Семейная психология. Гендерное равенство. Неприкосновенность семьи. Равенство прав мужчин и женщин в семье.

KIRISH

Bilamizki, Dunyo tinimsiz tarzda rivojlanib, globallashib bormoqda. Bugungi kunimizda jamiyatimizning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilaning tinchligi, dahlsizligi, muqaddasligi haqida fikr mulohaza yuritishimizdan oldin oilaning nima ekanligi hamda u haqida nazariy ma'lumot berib o'tsak foydadan holi bo'lmaz, albatta... **Oila** – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi... Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so'ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo'lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo'jalikka ega bo'lmagan. Bu davrda tabiiy omil o'z vazifasini tugalladi, ya'ni

jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

ASOSIY QISM

“...Bilamizki, jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o‘rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali oila, o‘zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz....” [1.1]

“... Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'on va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan. Quyida hadislar to'plamidan bir necha misollar keltiramiz: «Tangri nazdida bandalarning eng yaxshisi o'z ahli-ayoliga foydasi ko'p tegadigan kishidir» *118-hadis/*; , «Odamlar ichida xotin kishiga nisbatan haqlirog'i uning eridir. Erkak kishiga nisbatan odamlarning haqlirog'i - bu uning onasidif» *134-hadis/*; «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloqodobini ham yaxshilangiz» *138-hadis/*; «Qachonki er o'z xotiniga va xotin o'z eriga qarashsa, Tangri ham ularga rahmat nazari bilan qaraydi, bordi-yu kaftini kaftiga qo'ysa, barmoqlari orasidan gunohlari duv-duv to'kiladi» *144-hadis/*; Sizlarning har biringiz bamisoli cho'pondirsizlar va o'z qo'l ostingizdagilarga mas'uldirsizlar, Podshoh o'z fuqarolariga, er o'z ahli ayoliga, xotin erining uyiga, xodim o'z xojasi moliga, farzand o'z otasi mulkiga mas'uldir. Demak har birlaringiz mas'uldirsizlar» *1116-hadis/*; «Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi *1136-hadis/*. Keltirilgan namunalardan ko'rinadiki, demak diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, erkak-ayollarning oila oldidagi burch va mas'uliyatlari, ota-onaning bola va o'z navbatida

farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, urning xotiniga hurmat va e'zoi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralganligini ko'rishimiz mumkin..." [1.2]

"...Mutafakkimining qalamiga mansub bo'lgan *«Donishnoma»*, *«Risolayi ishq»*, *«Tib qonunlari»*, *«Uy xo'jaligi»* kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning *«Tadbiri manzil»* asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritir ekan, Ibn Sino, avvalom bor oila boshlig'i oldiga qator talablarni qo'yadi. Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim.

Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilarga, mahalla-ko'yg'a ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'i nazar, ularniig birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim. Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yo'qotgani yo'q..." [1.3].

Ushbu yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, avvallo, bunda oila psixologiyasida eng muhimi ham erkak, ham ayolning o'zaro teng huquqli nikoh munosabatlari (Gender tengligi) ga tayanilgan holdagi o'zaro munosabatiga bog'liq ekanligini, shuningdek, oilaning mustahkamligi, dahlsizligi, tinchligi, moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlanganligi birinchi navbatda erkakka bog'liqligi hamda o'z oilasining farovonligi, moddiy jihatdan ehtiyojini qondira olishi, birovlariga qaram qilib qo'ymasligi, oilasidagi turli xil muammolarni hal etishida birovlarning aralashishidan hamda "uchinchi shaxs"larning oila ishlariga ko'r-ko'rona aralashuvidan saqlab qola olish masalasidek dolzarb va hayotiy zaruriyat erkakka bog'liq ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. [2.1]

Chunki oilada bo'lajak o'g'il bolaning erkak sifatida tarbiyalanishi, mehnatga layoqatli hamda mehnatkash bo'lishi, sabrli, matonatli, bir so'zli bo'lib ulg'ayishi, ertangi kunda (kelajakda) hayot sinovlariga bardoshli bo'la olishi kabi dolzarb hayotiy masalalarda otaning, to'g'rirog'i oiladagi erkakning o'rni kattadir. Bundan tashqari esa shu o'rinda oilada ayolning ham o'rni bo'lakcha. Chunki dunyoning rivojlangan demokratik tizimidagi davlatlarda ayol kishining (Oiladagi ayolning) erkak bilan bir maqomda turishi, qonun oldida ham erkakning, ham ayolning huquqiy jihatdan teng huquqligi (Gender tengligi) bilan bog'liq qarashlari asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, bizda ham o'z ifodasini topayotganligi sezilarli ravishda kundalik hayotimizda namoyon bo'lmoqda.

Biroq ba'zi ko'ngilni hira qiladigan holatlar ham bo'lib, bunda ayollarning huquq va erkinligini, uning mohiyatini to'liq anglamasdan bunga salbiy munosabatda qarovchilar ham onda-sonda topilib turadi, ya'ni xotin-qizlarga, ayollarga to'liq erkinlik, xurlik bermaslik kerak, sababi bunday qilinsa, ayol erkakka (otasi, aka-ukasi, eriga) bo'ysunmay qo'yadi degan eski qarashlar ham bor. Shuning uchun ham bugungi kunimizda ba'zi oilalarda bo'lib turgan muammoli vaziyatlariga mana shunday eski qarashning bevosita ta'siri borligi sir emas, albatta [3. 1].

Xattoki, muqaddas dinimizning yirik manbalaridan biri bo'lgan "Hadisi Sharif" da ham ayollarning (Umuman olganda, onalarimiz, buvi-yu momolarimiz, opa-singillarimiz va hokozo...) mo'tabarligi-yu alohida hurmatga sazovorligi haqidagi manbalarning o'ziyoq bunga isbot bo'ladi. Axir bizning qadim o'tmishimizdan, tariximizdan ma'lumki, oqila, soliha, ilm-ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli, uzoqni ko'ra oluvchi, jasur, bardoshli, mehribon, shuningdek, kezi kelganda hech bir erkak qila olmagan ishlarni qila olgan zotlar: To'maris, Robiya Adaviya, Saroyi Mulk Xonum (Bibixonim), Uljoy Turkon Og'a, Xonzoda begim (Boburning egachisi-opasi), Mohim begim, Gulbadanbegim (Boburning qizi), Zebiniso begim (Boburiyzoda malika), Nodirayi Davron, Jahon Otin Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Qurbonjon Dodhoh (Oloy malikasi), Zebo G'aniyeva (Ikkinchi jahon urushi qahramoni), Zulfiya Isroilova (shoira), Saida Zunnunova (shoira), Kibriyo Qahhorova (Abdulla Qahhorning ayoli, madaniyat hodimi), Zarifa Saidnosirova (Oybekning ayoli, mashhur o'zbek kimyo olimasi), Oydin Sobirova, Zebo Mirzo, Farida

Afruz (o‘zbek shoiralari) bu ro‘yxatni yana davom ettirsak hali qancha davom etishi shubhasiz, albatta. [4.2]

Buni nima keltirib o‘tdim: Sababi oilada ayolning, xotin-qizlarning ham alohida o‘rni borligini, shuningdek, oilaning tinchligi, totuvligi, dahlsizligi, moddiy va ma’naviy jihatdan ham ta’min etilganligida ham erkaklar qatorida qolishmasdan yelkama-yelka turib, mehnat qilayotganligini, oilasining moddiy ta’minoti uchun erta-yu kech tinim bilmasdan ro‘zg‘or tebratayotgan ayollar va xotin-qizlar yo‘q diya olamizmi, yoki buni rad qila olamizmi. Mana shu o‘rinda aytmog‘imiz lozimki, ayollarni, xotin-qizlarni “ojiza”, “sochi uzun, aqli kalta” deb salbiy munosabatda qarash bugungi globallashayotgan zamonamizda to‘g‘ri kelmaydigan, mos kelmaydigan badbin qarash ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Endi esa bugungi kun ayollarimiz jamiyatda asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘z o‘rnini egallab, qadr-qimmatini anglay borayotganligining o‘zi ham olamshumul voqea-hodisa bo‘ldi desak, aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Yurtimizdagi demokratik jamiyatda ayol-qizlarimizning, xotin-qizlarimizning ham ijtimoiy-siyosiy huquqlari, ham iqtisodiy-moddiy huquqlari, ham ma’naviy-axloqiy huquqlarini hamda ularning asriy orzu-istaklarini ta’minlash, amalda qaror toptirish uchun jiddiy amaliy tadbirlarning, ishlarning olib borilaniyotganligining o‘zi ham tahsinga sazovor ishlardir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytmog‘imiz lozimki, Oila psixologiyasi nafaqat oilaviy muammolarni hal qilishga, balki oilaning umumiy sog‘lom muhitini ta’minlashga ham qaratilgan. Har bir a‘zo o‘z rolini to‘g‘ri bajarishi va bir-birini tushunishi oilaning mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘zaro sevgi, hurmat va sabr oiladagi eng muhim omillardir.

Oila psixologiyasi bo‘yicha muhim maslahatlar. Quyida oiladagi munosabatlarni mustahkamlash va sog‘lom psixologik muhitni yaratishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan:

1. Samarali muloqot qilish. Faol tinglash: Oiladagi har bir a‘zoni diqqat bilan tinglash, uning fikrini tushunishga harakat qilish.

Ochiq muloqot: His-tuyg‘ular va fikrlarni ochiq aytishdan qo‘rqmaslik. Hukm qilmaslik: Tanqid yoki hukm o‘rniga tushunishga intilish. 2. Konfliktlarni oldini olish va boshqarishdek bugungi davrimiz uchun eng muhim dolzarb masalasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

(Referensec)

1. **Oila Psixologiyasi.** «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2011.
2. **Oila Psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.** S.R.Mirzayeva, Sh.R.Samarova, D.U.Rahmonova va boshqalar. Toshkent-2024.
3. **Oila Psixologiyasi.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2008
4. **Oila Psixologiyasi.** Abdullayeva D., Yarqulov R., Atabayeva N. 2015.

Internet saytlari:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.til va adabiyot ta'limi.uz
4. www.Scoups
5. [Https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)
6. [Https://ziyouz.com](https://ziyouz.com)
7. [Https://www.tarix.uz](https://www.tarix.uz)
8. [Https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org)
9. [Https://jadid.uz](https://jadid.uz)
10. [Https://www.Supportscience.com](https://www.Supportscience.com)